

ANG'IZGA LOVIYA YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Imomnazarova F.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,

chorvachilik va biotexnologiyalar universitet

Annotatsiya: Respublikamizdning sug'oriladigan yerlaridan samarali foydalanish maqsadida kuzgi g'alla ekinlaridan bo'shagan maydonlarga ang'iz, takroriy ekin sifatida dukkakli don ekinlaridan loviyani ekish qishloq xo'jaligida uchta muammoni hal qilish imkonini beradi. 1) Don yetishtirishni ko'paytirish; 2) O'simlik oqsili muammosini hal etish; 3) Tuproq unumdorligini oshirish. Loviyani katta maydonlarda yetishtirish tuproq unumdorligini oshirish, oqsil muammosini hal etish – to'kin hayotimiz manbaidir. Maqolada loviyaning ahamiyati, kelib chiqish maydonlari, ekilish maydonlari, kimyoviy tarkibi, oziqaviylik ahamiyati va yetishtirish texnologiyasi va tadqiqot natijalari xulosa qilingan.

Kalit so'zlar: ang'iz – kuzgi g'alla ekinlardan bo'shagan maydon, takroriy ekin- asosiy ekindan keyin ekiladigan ekin, o'tmishdosh ekin- ekiladigan ekindan oldin ekilgan ekin, inokulyasiya-donlarni nitragin preparati bilan ishlanishi.

Kirish. Respublikamizda paxta, don, sabzavot, yem-xashak, moyli ekinlar mahsulotlarini yetishtirishni ko'paytirish asosan sug'oriladigan ekin maydonlarini kengaytirish, ekinlar hosildorligini oshirish, hosil sifatini yaxshilash, ekinlarni serhosil, tezpishar, kasallik va zararkunandalarga, tabiatning noqulay omillariga chidamli yangi nav va duragaylarini yaratish, ularning ilmiy asoslangan resurstejamkor texnologiyalarini ishlab chiqish hamda ishlab chiqarishga joriy qilish orqali amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda qishloq xo'jaligini samarali rivojlantirishda dukkakli don ekinlari, shu jumladan loviya ekinini alohida o'rni bor. Loviya dunyodagi eng qadimiy ekinlardan biri. Uning vatani Janubiy va Markaziy Amerika. Eramizdan 6 ming yil muqaddam loviya urug'i uchun ekilgan. Loviya dukkakli don ekinlari orasida ekilish maydoni bo'yicha soyadan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi.

Loviya o'simligi oziq-ovqatda, texnikada, konserva tayyorlashda, qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishda, yem-xashak sifatida ishlatiladi. Loviyaning bunday ishlatilishi donning sifatiga bog'liq. Loviya parhyez taomlar tayyorlashda, ayniqsa qandli diabet kasalligiga chalingan kishilar uchun foydali taom hisoblanadi.

Loviya asosan oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlashda keng qo'llaniladi. Oziq-ovqatlarni ishlab chiqarish uchun asosan loviyaning urug'lari va pishmagan dukkaklari qaynatilgan holda va konserva sifatida foydalaniladi. Ko'pgina mal'umotlarga ko'ra loviya donining tarkibida oqsil o'rtacha - 22,3 %, uglevodlar - 54,5 %, yog' - 1,7 %, kletchatka - 3,9 %, kul moddalar - 3,6 % mavjud. Energiya qiymati ham yuqori – 100 gramm urug'da 309 kkal (1293 kDj) bor.

Loviya donining tarkibida almashtirib bo'lmaydigan va odam organizmiga juda kerakli aminokislotalar - lizin, triptofan, metionin, treonin, valin, fenilalanin, leysin, izoleysin saqlanadi. Shuning uchun loviyaga almashtirib bo'lmaydigan konsentrat deb nom qo'yishgan. Loviya donining tarkibidagi oqsil juda yaxshi hazm bo'ladi va ushbu ko'rsatkich bo'yicha go'sht va baliq oqsiliga yaqin (86-90 %). Loviya doni kraxmal, glyukoza, saxarozaga boy. Donida go'sht tarkibidagiga nisbatan temir moddasi miqdori - 2,8, fosfor – 2,6, kaliy – 3,3, magniy – 4,5, kalsiy – 15 barobar ko'proq.

Loviya dukkaklari alohida parhyezlik ahamiyatiga ega. Nisbatan kaliy miqdorining ko'p, natriyning kam bo'lishi siydik haydashni kuchaytiradi hamda yurak ishiga ijobiy ta'sir etadi. Loviya qand kasalligi bor kishilar qonidagi qandni boshqarish xususiyatiga ega. Don tarkibidagi arginin insulinga o'xshash ta'sir qilish xususiyatiga ega. Glyukokinin qon tarkibidagi qand miqdoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, xalq tabobatida dukkaklarining qaynatmasi buyrak kasalliklari va qon bosimi oshganda, revmatizm kasalliklarini davolashda qo'llaniladi.

Materiallar va metodlar. Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti Samarqand ilmiy tajriba stansiyasining sug'oriladigan yerlar sharoitida loviyaning Ravot va Mahsuldor navlari 2021 hamda 2022 yillarda 1;16 iyul va 1 avgust muddatlarida ekilganda ikkala nav bo'yicha ham 1 iyulda ekilganda urug' hosildorligi muvofiq holda 22,3; 28,5 s/ga ni, 16 iyulda ekilganda 18,6; 20,8 s/ga ni, 1 avgustda ekilganda Ravot navidan 15,1s/ga hosil olingan. Mahsuldor navi urug'lari 1 avgustda ekilganda to'la pishib yetilmaganligi qayd etilgan. Ekish muddatlari viloyatlar tuproq-iqlim sharoiti inobatga olingan holda o'zgarishi mumkin.

Ang'izga ekilgan loviyaning Ravot navi asosan qator oralari 60 sm qilib punktirlab ekilganda 60x10sm sxemada 1 gektarga 167 ming dona urug' yoki 83 kg urug' sarflanadi. Agar 60 x 12 sm sxemada ekilsa gektariga 68 kg urug' ekilgan. Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti Samarqand ilmiy tajriba stansiyasining sug'oriladigan yerlar sharoitida o'tkazilgan tajribalarda loviyaning Ravot navi ang'izda 60x10-1 sxemada ekilganda o'rtacha 22 s/ga hosil olingan. O'tkazilgan ko'plab tajribalar loviya O'zbekiston sharoitida Ravot navi ang'izda qator oralari 60 sm, ekish me'yori 68-83 kg/ga bo'lganda hosildorlik eng yuqori bo'lishini ko'rsatdi. Ko'rsatilgan ekish me'yorini kamaytirish yoki oshirish don hosilining kamayishiga olib kelgan. Mahsuldor navi 60x12sm-1 sxemada ekilganda hosildorlik 28 s/ga ni tashkil etgan.

Qator oralari 60 sm qilib ekishning qulayligi yana shundaki Respublikadagi asosiy ekin g'o'za ham qator oralari ko'pchilik hollarda 60 sm qilib ekiladi. Shuning uchun g'o'za o'stirishda qo'llaniladigan texnikani loviya o'stirishda bemalol qo'llash mumkin. Qator oralari 70 sm qilib ekilganda ekish sxemasi 70x8sm Ravot navi uchun, Mahsuldor navi uchun 70x 10 sm tavsiya

qilinadi. Loviya urug' lari 4-5 sm chuqurlikka ekiladi. Tuproq mexanik tarkibi qumoq bo'lsa ekish chuqurligi 6-8 sm oshiriladi. Urug' larni juda chuqurga tashlash dala unuvchanligining pasayishiga, ko'p urug' larning chirib ketishiga sabab bo'ladi. Ekish SPCh-6, SPCh-8A, SST-12A seyalkalarida o'tkaziladi. lavlagi urug' larini ekadigan SST-12A seyalkasidan foydalanilganda STYa-31000 qo'shimcha seksiyasi o'rnatiladi. Urug' larni ekishda chigit ekadigan STVX-4 yoki SON-2,8 sabzavot seyalkalaridan ham foydalanish mumkin.

Ang'izga ekkanda oldingi ekinni yig'ib olgandan yer sug'oriladi, yer yetilgandan keyin 22-25 sm chuqurlikda haydaladi. Sug'oriladigan yerlar sharoitida loviya qator oralari ishlanadi, o'simliklar oziqlantiriladi, begona o'tlardan tozalanib sug'oriladi, kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashiladi.

qator oralarini ishlashga kirishish maysalar unib chiqib, qatorlar hosil bo'lganda boshlanadi. Keyingi kultivasiya ekinzorni begona o'tlar bilan ifloslanishi, tuproqning zichlashib qolganligi, sug'orishdan keyin tuproqni yetilganligiga bog'liq holda o'tkaziladi. Qator oralarini ishlash odatda har 10-15 kunda o'tkaziladi, ularning soni ekinzor holatiga qarab belgilanadi. Birinchi kultivasiya 6-8 sm chuqurlikda, keyingilari 10-15 sm chuqurlikda o'tkaziladi.

O'suv davrida tuproqdagi namlik ChDNSning 70% kam bo'lmasligi talab qilinadi. Bahorgi muddatda ekilganda sizot suvlar chuqur joylashgan bo'z tuproqlarda sug'orishni egatlab 3-4 marta, ang'izga ekilganda 2-3 marta o'tkazish tavsiya qilinadi. O'zbekiston sharoitida sug'orishni to'g'ri tashkil qilib o'tkazish yuqori hosil olishni ta'minlaydi.

Loviya hosili urug' lardagi namlik 14-16 % ga yetganda, SK-5 «Niva», SKD-6 «Sibiryak», Keys kombaynlari bilan o'rib yanchib olinadi. Urug' lardagi namlik 12 % dan yuqori bo'lganda barabanlarning aylanish tezligi minutiga 500-600 ga kamaytiriladi, barabanlar oralig'i kengaytiriladi. Barabanlarning aylanish tezligi urug' lardagi namlik 12 % dan kam bo'lganda minutiga 300-400 ga kamaytiriladi. Hosil massasida namlik yuqori bo'lsa barabanlar oralig'i qisqartiriladi.

Hosilni yig'ishtirish qisqa muddatlarda nobudgarchiliksiz o'tkaziladi. Urug' lar tozalanadi, saralanadi. Bu ishlar VS-2, saralaydigan «Zmeyka», shuningdek OVP-20, OS-4,5, ZAV-20, «Petkus-gigant», «Super-Pektus» mashinalarda o'tkaziladi. Urug' lar namligi 14 % dan ortiq bo'lmagan holda saqlanadi.

Xulosa: qilganda, kuzgi bug'doy hosilidan bo'shagan ang'izga ekish uchun yaroqli, o'suv davri 70-90 kun bo'lgan, dukklari pishib yetilganda yorilib, donlari to'kilib ketmaydigan, hosilni mexanizasiya yordamida yig'ishtirib olishga imkon beradigan loviyaning yangi navlarini yaratilishi, ularning birlamchi urug'chilik tizimini va yetishtirish agrotexnikasini ishlab chiqilishi va ishlab chiqarishga joriy etilishi, fermerlarni superelita va elita urug' lar bilan ta'minlanishi sug'oriladigan yerlardan samarali foydalanishga va 1 gektar takroriy ekilgan maydondan 20-30 s/ga urug' hosili olishga hamda gektaridan 12-16 mln so'm qo'shimcha daromad olishga, fermer xo'jaliklarini iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Oripov R., Xalilov N. O'simlikshunoslik //; Toshkent, 2004
2. Xalilov N., Ravshanova N. va boshqalar Ang'izga ekish uchun yaroqli loviya yangi navlari va ularning agrotexnikasi (tavsiyanoma) //; Samarqand, 2014
3. Xalilov N., Xalilova L., Ravshanova N., Otayarova G.U. Ang'izga ekishga yaroqli loviya navlari urug'chiligi va agrotexnikasi
4. Юнусов, Х. Б., & Захаров, С. Л. (2012). Разработка интегрированных методов глубокой очистки воды на основе баромембранных процессов и электрохимических технологий. *Химическое и нефтегазовое машиностроение*, (1), 38-41.
5. Юнусов, Х. Б. (2008). Совершенствование технологии электрохимической очистки воды от растворенных органических веществ. *Успехи в химии и химической технологии*, 22(10 (90)), 58-60.
6. Кривошея, И. В., Солтанов, С. Х., & Юнусов, Х. Б. (2016). Применение установки рекуперации нефтепродуктов, основанной на адсорбционных свойствах активированного угля. In *Актуальные проблемы биологической и химической экологии* (pp. 304-307).
7. Юнусов, Х. Б., & Силушкин, С. А. (2019). Гематологические и биохимические показатели крови кур-несушек при использовании в рационе настоя из лекарственных растений. In *Актуальные проблемы биологической и химической экологии* (pp. 79-84).
8. Балакин, Ю. А., Гладков, М. И., Юнусов, Х. Б., & Захаров, С. Л. (2015). Математическое моделирование влияния вибрации на рафинирование расплавов металлов. *Географическая среда и живые системы*, (4), 51-58.
9. Ярмолович, В. А., Юнусов, Х. Б., Федотов, Д. Н., Даминов, А. С., Дилмуродов, Н. Б., & Кулиев, Б. А. (2020). Морфофункциональная характеристика вымени у коров различной продуктивности.
10. Балакин, Ю. А., Юнусов, Х. Б., Будник, А. А., Соколов, И. В., & Хаулин, А. Н. (2016). Влияние внешнего воздействия на межфазное взаимодействие при кристаллизации металлов. *Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Естественные науки*, (2), 78-86.
11. Солтанов, С. Х., Кривошея, И. В., Позднякова, Д. В., & Юнусов, Х. Б. (2014). Негативные экологические последствия эмиссий авиадвигателей воздушных судов гражданской авиации московского авиационного узла. *UNTRADITIONAL NATURAL RESOURCES, INNOVATION TECHNOLOGIES AND PRODUCTS*, 137.
12. Юнусов, Х. Б., Дроганова, Т. С., Поликарпова, Л. В., & Лялина, И. Ю. (2016). Влияние загрязнения водной среды на изменения ферментативной активности пресноводного моллюска живородка речная. *АгроЭкоИнфо*, (4 (26)), 6.
13. Кононенко, Л. В., Самбурова, Е. В., & Юнусов, Х. Б. (2018). Метапредметность: опыт, реализуемый в жизни. *Химия в школе*, (5), 50-54.

14. Раткевич, Е. Ю., & Юнусов, Х. Б. (2012). Основы экологического образования. М.: Экомир.
15. Юнусов, Х. Б. (2013). Дисциплина «Экология» для направления подготовки «Педагогическое образование», профили подготовки «Технологическое и экономическое образование», «Технологическое образование». М.: МГОУ.
16. ЮНУСОВА, Т., Лётова, К. К., & ЮНУСОВ, Х. (2015). Экологические проблемы окружающей среды и правовые основы работы с экологически опасными веществами и отходами. In *Проблемы экологии Московской области* (pp. 72-74).
17. Кривошея, И. В., Солтанов, С. Х., Лялина, И. Ю., & Юнусов, Х. Б. (2015). Применение фиторемедиации как одного из эффективных и перспективных методов очистки почв от тяжелых металлов на территориях, прилегающих к аэродромам и автозаправочным станциям. *Министерство экологии и природопользования Московской области*, 84.
18. Yunusov, K. B. (2020). PATOMORPHOLOGICAL AND HISTOCHEMICAL INDICES IN EXPERIMENTAL PNEUMONIA IN KARAKUL LAMBS OF UZBEKISTAN.
19. Yunusov, K. B. (2020). PATOMORPHOLOGICAL AND HISTOCHEMICAL INDICES IN EXPERIMENTAL PNEUMONIA IN KARAKUL LAMBS OF UZBEKISTAN.
20. Юнусов, Х. Б., Салимов, Ю., & Нуруллаев, А. А. (2021). Техноген омилларни маҳсулдор хайвонлар организмига ўзига хос таъсирлари. *Вестник Ветеринарии и Животноводства*, 1(1).
21. Джаббаров, Ш. А., Юнусов, Х. Б., Федотов, Д. Н., & Нормурадова, З. Ф. (2021). Современное состояние гельминтофауны кошек.
22. Юнусов, Х. Б., Федотов, Д. Н., & Бутаева, И. М. (2021). Международные отношения в области образования между Самаркандским институтом ветеринарной медицины и Витебской государственной академией ветеринарной медицины.
23. Усиков, М. А., & Юнусов, Х. Б. (2021). СНИЖЕНИЕ ГАРМОНИЧЕСКИХ ИСКАЖЕНИЙ В ЭЛЕКТРИЧЕСКОЙ СЕТИ ПРИ ПИТАНИИ ПРЕОБРАЗОВАТЕЛЕЙ ЧАСТОТЫ ЭЛЕКТРОПРИВОДОВ БУРОВЫХ УСТАНОВОК. In *Международная научно-практическая конференция «Уральская горная школа-регионам»* (pp. 161-162).
24. Soltanov, S. K., Yunusov, K. B., Yuldashbayev, Y. A., Zolotarev, S. V., & Baimukanov, D. A. (2020). MODERN GEOCHEMICAL STATE OF THE ENVIRONMENT OF THE ADJACENT TERRITORIES OF THE DOMODEDOVO MOSCOW AIRPORT. *OF GEOLOGY AND TECHNICAL SCIENCES*, 31.
25. Голыбин, Ю. А., & Юнусов, Х. Б. (2020). ЭНЕРГОСБЕРЕЖЕНИЕ ПРИ АВТОМАТИЗАЦИИ НАСОСНЫХ СТАНЦИЙ. In *Уральская горная школа-регионам* (pp. 196-197).
26. Yunusov, K., & Achilov, O. (2022). Inspection of meat products and improvement of control at the slaughterhouse. *Journal of new century innovations*, 17(4), 155-162.

27. Юнусов, Х. Б. (2020). Патоморфологическая характеристика мочевыводящих путей у продуктивных животных. In *ВОПРОСЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ ГИСТОЛОГИИ* (pp. 167-170).
28. Кучинский, М. П., Юнусов, Х. Б., Джаббаров, Ш. А., Салимов, Ю., & Федотов, Д. Н. (2020). Токсикологическая оценка полиионного дезинтоксикационного препарата для животных. In *Состояние разработки и производства биологических и ветеринарных препаратов и возможности расширения их локализации* (pp. 63-65).
29. Юнусов, Х. Б., Захаров, С. Л., Зверев, О. М., Солтанов, С. Х., & Кривошея, И. В. (2015). УЛУЧШЕНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ СТОЧНЫХ ВОД НА ТЕКСТИЛЬНОМ ПРЕДПРИЯТИИ. In *Нетрадиционные природные ресурсы, инновационные технологии и продукты* (pp. 13-17).
30. Boysinova, N., Ibragimov, F., Yunusov, K., Achilov, O., & Rasulov, U. (2024). The effectiveness of using probiotics, their effect on growth and chemical composition of broiler chicken meat. In *BIO Web of Conferences* (Vol. 95, p. 01013). EDP Sciences.